

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI NIZOLARGA NISBATAN "MEDIATSIYA  
INSTITUTI"NI QO`LLASH MASALALARI

Abdug`aniyev Sobir Abdug`afur o`g`li

*Toshkent davlat yuridik universiteti, "Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi"  
yo`nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Intellektual mulk sohasidagi nizolarni suddan tashqari muqobil usullar yordamida hal qilish (ADR – Alternative dispute resolution) tendensiyasi zamonaviy huquq sohasida o`lib bormoqda. Mazkur muqobil usullar yordamida hal qilish mexanizmlari ichida "Mediatsiya" instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya (Vositachilik) – bu norasmiy konsensual jarayon bo`lib, bunda neytral vositachi uchinchi shaxs tomonlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda kelishuvga erishishda yordam beradi. Ushbu maqolada "mediatsiya" institutining boshqa muqobil nizolarni hal qilish usullaridan farqi va afzallik jihatlari O`zbekiston va xorji tajribasi asosida tahlil qilamiz.

**Kalit so`zlar:** intellektual mulk sohasidagi nizolar, muqobil usullar yordamida hal qilish institutlari, "Mediatsiya" instituti, mediator, vositachilik qilish, arbitraj, expert xulosasi.

**Abstract:** The tendency to resolve disputes in the field of intellectual property with the help of alternative methods out of court (ADR – Alternative dispute resolution) is growing in modern law. The institution of "Mediation" is of special importance among the mechanisms of solving using these alternative methods. Mediation is an informal consensual process in which a neutral third-party mediator helps reach an agreement based on the parties' interests. In this article, we will analyze the differences and advantages of "Mediation" from other alternative dispute resolution methods based on the experience of Uzbekistan and foreign countries.

**Keywords:** Disputes in the field of intellectual property, Alternative dispute resolution mechanisms (ADR), "Mediation" institute, mediator, mediating between two parties, arbitration, expert's opinion.

Ayni vaqtda davlatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalari qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga katta e`tibor berib kelinmoqda. Hatto intellektual mulk obyektlarini rag`batlantirishga doir qoidalar asosiy qonunimiz Konstitutsiyada ham o`z aksini topgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko`ra, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g`amxo`rlik qilishi qat`iy belgilab qo`yilgan. Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta`minlash bilan birga ular bilan bog`liq nizolarni samarali hal qilish mexanizmlarini yaratish hamda bu yo`nalishdagi amaliyotni takomillashtirish hozirgi zamon talabidir.

So'nggi yillarda qonun hujjatlari, adabiyotlar, ommaviy axborot vositalarida va amaliyotda intellektual mulk tushunchalari tobora keng qo'llanilmoqda hamda ushbu soha doirasidagi nizolar va qarama-qarshiliklar ham keng ko'zga tashlanmoqda. Xalqaro doirada iqtisodiyotning jadal rivojlanishi asnosida intellektual mulk huquqlarining ahamiyati ham ortib bormoqda. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazilgan obyektlar soni har yili sezilarli darajada o'sib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu esa intellektual mulk bilan bog'liq nizolar sonining ko'payishiga olib kelmoqda.

Intellektual mulk sohasi rivoji bilan bir qatorda ushbu yo'nalishga doir nizolar ham ortib bormoqda. Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi keltirgan malumotlarga qaraganda 2019-yildan boshlab intellektual mulk nizolariga oid sud jarayonlari keskin ortgan, jumladan, 2019-yil – 60 ta, 2020-yil – 85 ta, 2021-yil – 123 ta, 2022-yil – 213 ta. Intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq sud jarayonlarining asosiy qismi tovar belgilarini huquqiy muhofaza etilishi bilan bog'liq nizolardir.

An'anaga ko'ra, nizolarni hal qilish sud yordamida amalga oshiriladi. Ammo, sudlarning ish yuki, uzoq davom etishi, sud harajatlarining qimmatligi ziddiyatlarni hal qilishning yangi, tejamkor va samarali usullarini izlashga undaydi. Bunday usullarga butun dunyoda nizolarni hal qilishning muqobil usullari (ADR - Alternative dispute resolution) sifatida qaraladi. Hozirgi kunda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti ham nizolarni muqobil hal qilish (ADR) xizmatlarini taklif etadi. BITMda mavjud bo'lgan ADR turlari quyidagilardir:

- Mediatsiya – 2 yoki undan ortiq taraflar mediatr ishtirokida nizoni hal qilish uchun muzokara olib borishadi;
- Arbitraj – arbitr tomonlarning roziligi bilan ijrosi majburiy bo'lgan qaror qabul qiladi;
- Ekspert aniqlashtiruvi – bunda tomonlar biror spetsifik savol paydo bo'lganda bu xizmatdan foydalanadi.

Mediatsiya instituti ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, uning oxirida erishilgan kelishuv majburiy kuchga ega bo'lmaydi. Tomonlar istalgan paytda mediatsiyadagi ishni ko'rib chiqishni to'xtatishi mumkin. Mediatsiyada konfidentsiallik yuqori bo'lib, mediatrlar o'ziga berilgan dalillarni sir saqlash majburiyatini oladi. BIMTning mediatsiyasida, umumiy qoida bo'yicha, til va mediatsiya joyini tomonlar tanlaydi. BIMT mediatsiyasida narxlar 2 xil shaklda belgilanadi.

– Ko'rilayotgan ishning umumiy qiymatining 10 foizi miqdorida. Masalan, 100 ming dollarlik ish ko'rilganda uning 10 foizi, ya'ni 10 ming dollar to'lov sifatida olinadi.

– Belgilangan vaqt bo'yicha ko'riladigan mediatsiya to'lovi. Bunda, 1 soat uchun 300 - 600 dollar, 1 kun uchun esa 1500 – 3500 dollar to'lov qilish kerak bo'ladi.

Arbitraj. Arbitraj ham mediatsiya singari taraflar tomonidan neytral belgilanadigan, konfidentsial va xarajatlarni tejovchi institut sifatida qaraladi. Biroq mediatsiyadan farqli o'laroq uning qarori majburiy xarakterga ega. BIMTda tezlashtirilgan arbitraj xizmati ham mavjud bo'lib u nizolarni tezroq va kam xarajat bilan ko'rish imkonini beradi.

Ekspert aniqlashtiruvi. Bu institut ham ADRning bir turi bo'lib, unda tomonlar nizo yuzasidan birdan ortiq ekspertni yollaydi. Ekspert aniqlashtiruvi texnik, ilmiy yoki

ishbilarmonlik xarakteridagi masalalarni aniqlashda kerak. Ekspert qaroridan foyda ko'rish mumkin bo'lgan masalalarga:

- intellektual mulk aktivini baholash yoki royalti stavkalarini belgilash;
- patent talablarini talqin qilish;
- litsenziya shartnomasi bilan bo'g'liq huquqlarning darajasi va boshqalar.

Intellektual mulk borasidagi nizolarni hal qilishda Mediatsiya institutining roli.

Intellektual mulk sohasidagi nizolarni muqobil usullarda hal qilish mexanizmlari ichida Mediatsiya instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya so'zi lotin tilidagi "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish" degan ma'nolarni bildiradi. Mediatsiya — bu bir-birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs — mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo'li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir.

Nizoni sud oraqli hal qilishdan farqli ravishda, ishni mediatsiyada hal qilish bir qator afzalliklarga ega:

- Arbitraj va sud jarayonining narxi vositachilik protsedurasining narxidan sezilarli darajada qimmatdir. shuningdek, mediatsiya bepul amalga oshirilishi ham mumkin;

- Mediatsiya tartibi nizo taraflarining kelishuvi bilan belgilanadi sud va hakamlik muhokamasidan farqli ravishda, u kamroq vaqt talab etadi va tezroq amalga oshiriladi. Taraflar qat'iy protsessual talablarga rioya qilishdan ozod;

- Mediatsiya tartibida ishlar maxfiy tarzda ko'riladi. Fuqarolik va hakamlik sudidagi ishlari esa oshkorlik prinsipiga ko'ra, ular chiqargan qaror ommaviy axborot vositalarida muhokama mavzuga aylanishi mumkin.

- Jahon tajribasida mediatsiyadan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Masalan, mediatorlar ishtirokida hal qilingan nizolarning 70-80% gachasi kelishuv bilan yakunlanadi.

Mediatsiya instituti ixtiyoriylik, maxfiylik, tomonlarning teng huquqliligi, mediatorning betarafliigi va xolisligi, jarayonning shaffofligi, hamkorlik, mas'uliyat kabi fundamental tamoyillarga asoslanadi. Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlar huquq tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya – yarashtiruv jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mediatsiya instituti AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Hindistonda keng qo'llaniladi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliyada mediatsiya instituti qonuniy ravishda tasdiqlangan va yarim asrdan ko'proq vaqt davomida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Keyinchalik bu institut Germaniya, Fransiya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqaldi. Germaniyada mediatorlar to'g'ridan-to'g'ri sudlar bilan ish olib boradi va sud jarayonlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Ko'pgina nemis huquqshunoslik maktablarida mediatsiya bo'yicha doimiy kurs joriy qilingan. Ushbu xorijiy davlatlarning qonunchiligi vositachilikni rag'batlantiradi va mazkur mamlakatlarning ba'zilarida mediatsiya sudgacha majburiy protsedura hisoblanadi. Quyida nizolarni muqobil hal qilish instituti sifatida mediatsiyani xorij tajribasi asosida ko'rib chiqamiz.

Rossiya Federatsiyasi: Mediatsiya instituti Rossiyada 10 yildan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lib, 2010-yil 27-iyulda "Mediator ishtirokida nizolarni hal qilishning muqobil

tartibi to'g'risida (mediatsiya protsedurasi)" qonun qabul qilingandan so'ng u yangi bosqichga ko'tarildi. 2019-yil mediatsiya to'g'risidagi qoidalarga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi.

Ko'pincha Rossiyada mediatsiya vositasida nikoh va oila, yer, meros, uy-joy va mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal qilinardi. 2019-yilda tuzatishlar qabul qilingandan so'ng, ma'muriy va fuqarolik nizolari ham vositachilik protseduralari yordamida hal qilinishi mumkin bo'ldi. Rossiya qonuniga ko'ra, mediatsiya protsedurasining davomiyligi 180 kundan oshmasligi kerak.

Rossiya qonunda yana bir yangilik shu ediki, unga ko'ra tomonlari suddan tashqari vositachilik shartnomasini notarius bilan tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu bilan u sud ijro varaqasining kuchiga ega bo'ldi. Mediatsiya shartnomasining notarial tasdiqlanishi bilan ijro hujjati kuchini olishi mediatsiya institutining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va bu fuqarolar va tadbirkorlarga nizolarni tezroq, o'zaro kelishuv tartibida hal qilishga imkon berdi. Shuningdek, mediatsiya shartnomasini notarial tasdiqlash vositachilik jarayonining o'ziga jamoatchilikning qiziqishini oshirdi.

Ma'lumki, mediatsiya tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarori ixtiroriy xarakterga ega. Ammo, mediatsiya shartnomasining majburiy bajarilishi Yevropaning ayrim mamlakatlarida (Germaniya, Ispaniya, Slovakiya, Shvetsiya), va Amerikada mavjud. 13 ga yaqin xorijiy davlatlar mediatsiya shartnomalarini majburiy bajarilishini qonunchilikda mustahkamlagan. Amalda, xorijiy biznes vakillari vositachilik shartnomasining qanday kafolati borligini so'rashadi. 2019-yilga kelib RFda ham mediatsiya shartnomasi bajarilishi yuzasidan kafolat paydo bo'ldi. Ammo vositachilikning asosiy kafolati shundaki, muzokara olib boruvchi sheriklar o'z ixtiyorlari bilan majburiyatlarni o'z zimmalariga olishadi va ularni mas'uliyat bilan bajaradilar .

AQSH. Anglo-sakson huquq tizimidagi mamlakatlarda nizolarni suddan tashqari muqobil usullar yordamida hal qilish juda mashhur. Muqobil usullarni joriy etish va nizolarni hal qilishda Amerika Qo'shma Shtatlari yetakchilik qilishi ham bunga yaqqol misol. AQSH sud tizimidan tashqarida nizolarni mediatsiya, arbitraj va hakamlik mexanizmlari orqali hal qilish bo'yicha dunyodagi eng muvaffaqiyatli tizimga ega.

AQSHda mediatsiya instituti ADRning eng kam tortishuv shakli hsioblanadi. So'nggi yillarda, AQSHda qonunchilik tizimidagi islohotlar sababli, suddan tashqari kelishuvlarga erishishda mediatsiya instituti yanada ommalashmoqda. Mediator tomonlarga muammolarni birgalikda aniqlashda, ular o'rtasida muhokamani tashkil qilishda va kelishuv tanlovlarini yaratishda yordam bermoqda. AQSHda mediatsiyaning asosiy maqsadi ikkala tomonga ham maqbul va samarali yechimni olishga imkon beradigan qarorini taqdim etishdir. Shuningdek, u yerda mediatsiya nizoning barcha bosqichlarida, sudgacha, sud jarayonida, hatto apellyatsiya jarayonida ham nizoni ko'rib chiqilishi mumkin.

Hindiston. Nizolarni suddan tashqari muqobil ravishda hal qilish tizimi bu Hindiston aholisi uchun yangilik emas. Qadimda panchayatlar qishloqlarning hurmatli oqsoqollari yoki mahajanlar neyral norasmiy vositachi sifatida tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda qatnashgan. Britaniya mustamlakasidan keyin, Hindistonda mediatsiya rasmiy va qonuniylashtirilgan ADR mexanizmi sifatida tan olinishni boshladi.

Hindistonda mediatsiya nizolarni hal qilishda eng mashhur va foydali usul sifatida qaraladi. Hindistonda mediatsiya shartnomaviy jarayondir. Ishtirokchilar odatda mediator bilan vositachilik shartnomasini imzolaydilar hamda shartnomada ishtirokchilar va mediator vositachilik qilishdan oldin hamda keyin nima qila olishi va qila olmasligi protsedurasini belgilaydi.

Hozirgi kunda Hindistonda mediatsiya nizolarni hal qilishning ajralmas qismiga aylangani sababli mahalliy sudlari tomonlarni stol atrofida suhbatlashishga va o'zaro murosaga erishishga undamoqda. Ayni vaqtda Hindistonda Dehli Oliy sudi mediatsiya markazi(DMC), Ollohobod Oliy sudi mediatsiya markazi(AMC), Bangalor mediatsiya markazi (BMC) o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Amaliyotga qarasaq, juda murakkab patent nizolari (masalan, Hoffman La Roche vs Cipla 2008, va Merck Sharp Dohme Corporation vs Glenmark Pharmaceuticals 2013, Dehli Oliy sudi) Dehli Oliy sudining mediatsiya markaziga yuborilgan. Bunday murakkab nizolarni topshirish to'g'risidagi qaror, ayniqsa murakkab farmatsevtika patentlarini buzish va ushbu patentlarning haqiqiylikini tekshirish masalalari Hindiston mediatsiya institut uchun katta yutuq hisoblanadi.

Davlatimizda ham intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishda mediatsiya instituti 2021-yil 28-yanvarda qabul qilingan "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4965-sonli qaroriga asosan joriy etilmoqda. Bu qaror asosida, intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilishda mediatsiya institutini qo'llash tartibi ishlab chiqilishi, mediatsiya institutini qo'llash uchun shartnoma namunasi tayyorlanishi va mediatsiya institutini qo'llash uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan mediatsiyachi ro'yxati tuzilishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda ushbu qarorning qabul qilinishidan maqsad tadbirkorlik bilan bog'liq nizolarda mediatsiya institutini qo'llashni rivojlantirish va soha bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro standartlarni joriy qilish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilsak, nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida mediatsiya xalqaro tajribada sinovdan o'tib, o'zining bir qator afzalliklari bilan dunyo mamlakatlari milliy qonunchiligidan munosib o'rin egallab kelmoqda. Ko'plab davlatlar mediatsiya to'g'risidagi o'zlarining qonunlarini qabul qilishdi va mamlakat doirasida hamda xalqaro miqyosdagi mediatsiya markazlarini tashkil etishdi. Ayni vaqtda fuqarolik, iqtisodiy, mehnat va intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni mediatsiya yordamida hal etish taraflarning qimmatli vaqti va mablag'ini tejashi barobarida, ular o'rtasidagi do'stona munosabatlar saqlanishiga hamda litsenziyalangan maxfiy ma'lumotlarini konfidensialligini ta'minlashga ham zamin yaratmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi// I.M.Mo'minov nomidagi Falsafa va xuquq instituti. – Toshkent, 2005.

2. Intellektual mulk huquqining dolzarb muammolari / xorijiy ekspertlar ishtirokida (videokonferentsiya shaklida) Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.: TDYUU, 2020.

3. M.B.Bahramova. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etish. O'quv qo'llanma. – T.:TDYU nashriyoti, 2022. 272 b.

4. Отахонов Ф.Х. Правовые основы и перспективы развития медиации в Узбекистане. // Вестник Федерального института медиации Российской Федерации. 2018.– No 4. – С.219–227.

5. Update on the WIPO Arbitration and Mediation Center's Experience in the Resolution of Intellectual Property Disputes, WIPO Center, Les Nouvelles, Journal of the Licensing Executives Society International, March 2019.

#### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-noyabrdagi "Mediatsiya to'g'risida"gi 482-sonli Qonuni. lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021-yildagi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi 674-sonli Qonuni. lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi Qonuni 2006-yil 16-oktyabr.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvarda qabul qilingan "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-sonli qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori